



FANLARARO INTEGRATSIYA O‘QUVCHI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Elmurodova I.A.

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim
metodikasi kafedrasi erkin tadqiqotchisi*

Tayanch so‘zlar: o‘quv jarayoni, boshlang‘ich ta‘lim, fanlararo integratsiya, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, shakl, metod, vosita, samaradorlik, innovatsiya, faoliyat, uyg‘unlashtirish, jarayon.

Ключевые слова: образовательный процесс, начальное образование, междисциплинарная интеграция, знания, навыки, компетентность, форма, метод, среда, эффективность, инновация, деятельность, гармонизация, процесс.

Key words: educational process, primary education, interdisciplinary integration, knowledge, skills, qualifications, competence, form, method, tool, efficiency, innovation, activity, harmonization, process.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur‘atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo‘ymoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta‘lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o‘zaro aloqadorlikda eng zarur bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm - fanning turli sohalari uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

Mazkur vazifalarni yechish uchun o‘quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta‘minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o‘quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan so‘nggi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv fanlarining bir - biri bilan bog‘langan tizimini shakllantirish lozim.

Boshlangich sinf o‘quvchilariga tabiiy bilimlarni singdirish orqali barcha o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarni o‘qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarur.



O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta'minlanganda o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Shuningdek, fanlararo integratsiya miqdoriy jamlash bilan bog'liq bo'lgan, bilish jarayonining sifatli siljishini tavsiflaydi. Fanlararo integratsiyani aniqlash va uni amalga oshirish shakllari va yo'llariga bog'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar fan rivojining zamonaviy sharoitlari uchun xos bo'lgan, o'zaro aloqalarning sifatli yangi turini ajratadi.

Biroq, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning fanlararo integratsiya asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kirishini adabiyotlar va tadqiqotlar tahlillaridan aniq bo'ldi.

Fanlarning o'zaro aloqadorlik bir-birini to'ldiradi. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim mazmunida ham integratsiyalashuvni ta'minlash bir qator pedagogik imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Ta'lim mazmunini integratsiyalash ya'ni fanlararo aloqadorlik tushunchalarining tasnifi aksariyat olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, bilish jarayonining tavsifi sifatida integratsiya ifodasining ko'p jihatligi, uni falsafa, shuningdek, ilmiy nazariyaning tadqiqot obyektiga aylantirdi, bu esa uning ko'p ma'noli, ko'p tomonlama ta'riflari miqdorining ko'pligi bilan bog'liq bo'ladi. Har bir ta'rifda mazkur bilim sohasini tavsiflovchi, fanlararo integratsiya jarayonining ahamiyatli belgilari ajratiladi. Mazkur muammoning falsafiy tadqiqotlarida ilmiy bilim va turli sohalarida fanlararo integratsiyaning integratsiyalovchi omili va aniq shakllarining metodologik jarayonlari amalga oshiriladi va shu asosda "integratsiya" tushunchasiga sintetik ta'riflar beriladi. Unda integratsiya shakllari, funksional xususiyatlari, asoslari, mexanizmlarini aniqlashga e'tiborni qaratadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish o'quvchilarning mantiqiy va aqliy faoliyatining imkoniyatlarini o'rganish, o'quvchilarda mantiqiy mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etilishi bilan bog'liq. Unda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish lozim. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilarini integratsiyalashgan holda o'qitish sharoitida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirishda quyidagi muammolar mavjud ekanligini e'tirof etish mumkin: ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda fanlararo integratsiya jarayoni yetarlicha o'rganilmaganligi.



umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinflarida fanlararo integratsiya jarayonini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimining Milliy o'quv dasturini amalga oshirishda hamda o'quvchining mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlashda to'laqonli o'rganilmaganligi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ yondashuv asosida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini tahlil qilish mazmuni, shakl, metod va vositalari atroflicha ishlab chiqilmaganligi;

boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida o'quvchilarining mantiqiy fikr yuritilishlari uchun maxsus sifat masalalari va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish holati, shuningdek, darslik va o'quv qollanmalarining yangi avlodini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich o'quv fanlarini integratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish yosh avlodga fundamental bilim berish jarayoniga kompleks yondashuv muammosini, tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Muammoga doir izlanishlar olib borishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalarni o'rganish;

an'anaviy metodlar asosida boshlang'ich sinflardagi qator o'quv fanlariga aloqador bilim va tushunchalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va natijalarni tahlil qilish;

boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalar hamda metodlarni keng qo'llash asosida fanlararo aloqadorlikka oid tushunchalarni hosil qilishga erishish;

o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashni osonlashtirishga sharoit yaratadigan, o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlarini samarali o'zlashtirishlariga imkon beradigan o'quv mashg'ulotlari dasturini tuzish;

o'quvchilarning o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishlari, muayyan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rganilayotgan o'quv fani bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo integratsiyaning ta'sirchanligini oshirishdan iborat.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyiligini tushunishni tabiatan anglab etishga o'rgatadi. Shuni hisobga olish kerakki, maktabdagi darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan e'tibor qilish lozim. Zero, ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik mazmundagi bilimlarni o'quv jarayoniga joriy qilish, fan texnika yutuqlarini, atrof-muhit muhofazasi bilan kurashishda, aniq o'qitish shakllari va metodlaridan foydalanishda o'z aksini topmog'i lozim.



Boshlang'ich maktabda integratsion bilimlarni takomillashtirish, tabiat va jamiyat xususiyatlari bilan tanishtirish bilan chegaralanmasdan balki, jonli va jonsiz tabiatning har xil obyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tushuna oladigan shaklda ochib berishi jonajon tabiatga muhabbatni, uning boyligini qo'riqlash va ehtiyotlik bilan foydalanish istaklarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, bilim faoliyati va qiziqishlari rivojlanadi. Integratsiyalashgan darslarning mazmuni, o'qituvchining o'qitish faoliyati o'quvchining shaxsiga bag'ishlangan, shuning uchun o'quvchilar qobiliyatini har tomonlama rivojlantirishga, ularning fikrlash jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi va turli fanlarga oid bilimlarni umumlashtirishga chorlaydi. Integratsiyalashgan bilimlardan muntazam foydalanish turli xil ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Integratsiya o'zi uchun emas, balki o'qituvchi faoliyatidagi ma'lum tizim bo'lgani uchun, yaxlit ta'limning yakuniy natijasi bolishi lozim.

Integratsiyalashgan ta'lim natijasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

boshlang'ich sinflarda fanlararo integratsiyani takomillashtirish o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda;

aniqlangan intellektual faoliyat darajasini o'zgartirishda, o'quv materialini yetakchi g'oyalar negizida ko'rib chiqish, o'rganilayotgan muammolar o'rtasida tabiiy munosabatlarni o'rnatish;

dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning faol va mustaqil ishlashga intilishida namoyon bo'ladigan motivatsion faoliyatni rivojlantirish;

o'quvchilarni ijodiy faoliyatga qo'shilishida, ya'ni o'zlarining she'rlari, rasmlari va sport musobaqalarida ishtirok etishi nazarda tutiladi.

O'quv jarayonida fanlararo integratsiyani qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyati shundaki, ilm-fan asoslarini ta'limning yaxlit shakllari orqali o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashiga mos keladi. Bu esa integratsiyalashgan darslarni samarali yo'lga qo'yishni ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quv rejadagi barcha fanlarni yoki aksariyatini o'rgatishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Abduraxmonova Ch. O'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish shartlari. Ta'limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot /Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand - 2018. 173-176.

2. Берулава М.Н. Интеграция содержания образования М.Н.Берулава. - М.: Педагогика, Бийск: Науч.-изд. центр БИГПИ, 1993. С.-113-115.



3. Безрукова В.С. Теория педагогической интеграции как методологическое знание/ В.С.Безрукова// Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: сборник науч. трудов/ Отв.ред. В.С.Безрукова. - Свердловск:СИПИ, 1991.- Вып. 2. - с.5-13.

4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integrasiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. -T.: "Ilm Ziyo"-2009. -B.192.

5. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: p.f.d., diss.- T.: O'zPFITI, 2005. - 265 b.

6. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilaning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., diss... avtoref.- Namangan, 2019. - 48 b.

7. Кошкина И.В. Интеграции предметно-содержательной информации педагогических дисциплин на модульной основе: дисс... канд. пед. наук. -Саратов, 1998. -144 с.

8. Norbutayev Kh.B. Natural intersubjects formation of ecological thinking in school pupils. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> ISSN: Impact Factor: SJIF 2021=7.699 10.5958/2278-4853.2021.00710.2. -P. 419-426.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish mazmun mohiyati, samaradorlik, o'quv jarayoni, o'qitish shakllari, metodlari, vositalari va uyg'unlashtirish holati, darslarni tashkil etish, o'quvchilar shaxsiga individual va umumiy yondashish, ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlariga va innovatsiya faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена изучению фундаментальной интеграции, совершенствованию сущностного содержания, эффективности, совершенствованию формы, метода, средств и состояния обучения, организации занятий, индивидуального и общего обучения, обучению инновациям и инновационному развитию после чего подготовил узигу лекарственного средства.

SUMMARY

This article covers the essence of improving the educational process in elementary grades on the basis of the integration of Sciences, efficiency, educational process, the state of teaching forms, methods, tools and harmonization, the organization of classes, an individual and general approach to the personality of students, specific aspects of preparing them for innovation processes and innovation activities in the educational system.